

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SOG`LIQQA QARSHI HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

*IV Akademiyasi 3-bosqich 308-guruh kursanti  
To`rayev Aslbek Almardon o`g`li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada profilaktika inspektorining sog`liqqa qarshi huquqbuzarliklar bo`yicha faoliyatida uchraydigan muommolar, islohotlar, huquqiy asoslar bayon, sohada uchraydigan ayrim kamchiliklar, ularning yechimlari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** shaxs, sog`liq, jamiyat, xavf, tan jarohati, muommolar, bartaraf etish, targ`ibot

**Аннотация:** В данной статье описаны проблемы, реформы, правовые основы, возникшие в деятельности инспектора по профилактике нарушений здоровья, некоторые недостатки в этой сфере и пути их решения.

**Ключевые слова:** личность, здоровье, общество, риск, травма, проблемы, устранение, продвижение.

**Abstract:** This article describes the problems, reforms, legal bases encountered in the activities of the preventive inspector in the field of health violations, some shortcomings in the field, and their solutions.

**Key words:** individual, health, society, risk, injury, problems, elimination, promotion

Ichki ishlar organlarining sog`liqqa qarshi huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyati har bir sog`liqqa nisbatan individual yondashuvni talab etadi. Bu, avvalambor, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga ham taalluqlidir. Masalan, viktimlikning dastlabki bosqichida profilaktika qilish muammosi so`nggi yillarda bir necha marta ko`tarildi. Ammo o`smirlar va qizlar orasidagi profilaktikaga nisbatan tabaqalashtirilgan yondashuvning zarurligi bu holda ham juda kam tilga olindi. Yuqorida qayd etilgan umumiy, bir xil yondashuv bu yerda ham yetakchilik qiladi. Beqaror oiladan chiqqan o`smir yoki qizni ro`yxatga qo`yish, o`z vaqtida chora ko`rganlik haqida rahbariyatga hisobot berish va shu bilan o`smir yoki qiz jabrlanuvchiga aylangunga qadar profilaktik ta`sir ko`rsatishni to`xtatish, ichki ishlar organlari, avvalambor, voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha inspeksiya xodimlari va uchastka nozirlarining muhim vazifasidir. Shuningdek, profilaktikaning barcha sub`ektlari faoliyatini baholash mezonlari, odatda, ular faoliyat ko`rsatuvchi shaxs ijtimoiylashuvining ma`lum bosqichi bilan chegaralanadi.

Buning ustiga, voyaga yetmaganlar, ayniqsa, qizlar maxsus o`quv-tarbiya

muassasalariga yoki koloniyalarga tushib qolgach, ba'zan ijobiy ijtimoiy faoliyat ko'nikmalarini orttirish zarurligini idrok etish layoqatini yo'qotib qo'yimoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yosh bolalik davrida zo'ravonliklardan jabrlanish va zo'ravonlikka duch kelish holatlari jinoyatchi bo'lish ehtimolini keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, bolalarga nisbatan zo'ravonlik qilish holatlarini iloji boricha dastlabki vaqtlarda aniqlash va ular viktimligini oldini olishning ahamiyatini oshiradi.

Ushbu ehtimol jinsiy aloqa va zo'ravonlikning boshqa ko'rinishlari mavjud bo'lganida yanada murakkablashadi. Uy sharoitidagi doimiy zo'ravonlikning ko'lami ro'yxatlar va ma'lumot bazalari muntazam ravishda yangilanib turiluvchi bir necha mamlakatlardagina, jumladan, Buyuk Britaniya va AQShda bolalarni himoya qilish rasmiy agentliklariga xabar qilingan bolaga nisbatan zo'ravonlik qo'llanilishi holatlarining keyingi 1-4 yil ichida takrorlanish nisbati 5-24 %ga teng ekani aniqlangan. Bir bola masalasi bo'yicha kamida ikki marta shikoyat tushgan holatlarda bu ehtimol sezilarli darajada ortar ekan.

Bolaga nisbatan oilada zo'ravonlik qo'llanilishi boshqa muhitlardagi zo'ravonliklar ortib borish xatari bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, xonadonda zo'ravonlikning guvohi bo'lgan bolalarning o'zlari bezorilikdan jabr ko'rishlari ehtimoli yuqori bo'lar ekan<sup>85</sup>. Italiyada boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, maktabda bezorilikning jabrlanuvchisi bo'lish o'z uyida ota-onalar tomonidan zo'ravonlikka guvoh bo'lish bilan uzviy bog'liq ekan. Bu ayniqsa qiz bolalarda ko'proq uchrashi aniqlangan.

Ichki ishlar organlarining sog'liqqa qarshi huquqbuzarliklarning maxsus va individual profilaktikasi ham o'ziga xos xususiyat va ahamiyatga ega bo'lib, profilaktikaning bu turi, zo'rlik bilan sodir etiladigan huquqbuzarliklardan mudofaani ta'minlash maqsadida fuqarolarning kriminologik ong va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarni ko'paytirishni taqozo etadi. Bu, avvalo, har bir potensial jabrlanuvchi kriminologik vaziyatning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun zarur choralarni ko'rish prinsipiga asoslanadi.

Ye.O.Alauxanov va Z.S.Zaripovlar tomonidan maxsus (yakka) tartibdagi profilaktikani, viktimligi yuqori bo'lgan shaxsni aniqlash va u bilan tarbiyaviy chora-tadbirlarni o'tkazish, uning jinoyatdan jabrlanib qolish xavfini kamaytirishdan iborat chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi<sup>86</sup>, deb ta'kidlaydi.

Kriminologik vaziyatni real baholash nafaqat voqealar salbiy rivojlanganda to'g'ri harakat qilishi, balki fuqarolarni ehtiyotkorlikka chaqirish va yetkazilishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldini olish yoki kamaytirishga xizmat qiladi. Ammo xavfli vaziyatlarni ko'ra bilish va ularni baholay olish barchada bir xil emas. Bunday kamchilik individual viktimlikning asosiy belgilaridan biri bo'lib,

viktimizatsiyaning oldini olish maqsadida uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxsning xavfli vaziyatlarga tushib qolishi mumkin bo'lishining imkoni bo'lmasa-da, bunday vaziyatlarga nisbatan munosabatda bo'lish va immunitet hosil qilish zarur. Bu potensial xavfni real baholash, o'zini boshqara olish va xatti-harakatlarining oqibatlarini anglashga olib keladi.

Shaxs o'zining xavfli vaziyatlardagi kamchiliklarini bilishi, bunday vaziyatlarga tushib qolish ehtimolining yuqoriligini anglashi potensial jabrlanuvchi zaruriy mudofaasining ruhiy quroli bo'lib xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlarining sog'liqqa qarshi huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatini tashkil etishda ommaviy axborot vositalari orqali berilgan axborotni idrok etish va o'zlashtirish osonroq va qulayroq ekanini hisobga olib, bunday yo'sindagi tavsiyalarni osongina eslab qolish imkonini beradigan tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Bunda odamning hayot tarziga xos bo'lgan turli vaziyatlar va sharoitlarda unga hujum qilinishining ehtimol tutilgan variantlarini tahlil qilish uchun samarali va maqbul bo'lgan himoya usullarini ishlab chiqish taklif etiladi. Ayniqsa, viktimogen vaziyatlarda harakat qilish tajribasiga ega bo'lgan kishilarning maslahatlari foydali va ishonchga sazovor bo'lishi lozim.

Xorij mamlakatlarida allaqachon amaliyot sinovidan o'tgan bunday chora-tadbirlarning ijobiy samarasi shu bilan belgilanadiki, ehtimol tutilgan viktimogen vaziyatda o'z xulq-atvorini oldindan ishlab chiqish jarayonida inson ongiga harakatlarning muayyan algortmi kirib o'rnashadi va real hayotda bu shaxs bilan shunga o'xshash biron-bir voqea yuz bergudek bo'lsa, bu tajovuzning dastlabki shikastli ta'siriga nisbatan yengilroq kechadi. Bundan tashqari, ehtimol tutilgan kriminal vaziyatlarga real baho berish odamlarda ehtiyotkorlikni kuchaytiradiki, bu ba'zan yuqorida ko'rsatilgan vaziyatlarning yuzaga kelishini oldini oladi.

Ayrim psixologik qonuniyatlarni bilish ham nizoli vaziyatni chetlab o'tish imkonini beradi. Ba'zan tajovuzkor xulq-atvorda darg'azablik, raqibning tajovuzkor ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Uning o'zini tutishi tahdid soluvchi ko'rinish kasb etadi, shaxs xuddi tashlanishga tayyorlanayotgandek bo'ladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, darg'azablik holatida inson kuchiga kuch qo'shilganini his qiladi, yanada serg'ayrat va serzarda bo'lib qoladi. Bu holatda u jismoniy harakatga ehtiyoj sezadi va shuning ta'sirida ba'zan jinoiy zo'rlik ishlatadi<sup>87</sup>.

Shuni qayd etish lozimki, jinoyatchilikning rasmiy statistikasidan tashqari, aholi o'rtasida anonim tarzida o'tkaziladigan so'rovlar jinoyatchilikning miqyosi, taqsimlanishi va rivojlanishini aniqlash imkonini beradi; turli huquqbuzarliklar bo'yicha viktimlashuv darajasini namoyish etadi; jinoyatchi bilan jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni va ularning ijtimoiy-demografik belgilarini ko'rsatadi; viktimlashuv amalda yetkazgan ziyonga baho berish; uning xavflilik darajasini aniqlash; ayrim jabrlanuvchilar o'zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida



huquqni muhofaza qiluvchi organlarga arz qilishdan bosh tortishining sabablarini tushuntirish; jinoiy adliya organlarining ishiga baho berishgako'maklashadi. Huquqbuzarliklar va huquqbuzarliklar profilaktikasiga keng jamoatchilikni jalb etishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish dunyodagi ko'pchilik davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Germaniya va Avstraliya shaharlarida kuzatiladi. Respublikamizda shunga o'xshash dasturlardan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning «Xavfsiz shahar» apparat-dasturiy kompleksi ishlab chiqilib, uning imkoniyatlaridan Toshkent shahrida keng foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qay darajada professional va ko'p sonli bo'lmasin, jinoyatchilikka qarshi faqat ularning kuchi bilan kurash olib borish mumkin emasligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Mazkur organlar faoliyati jinoyatchilikka ta'sir o'tkazish jarayonida jamoatchilik (turli-tuman shakllarda) ishtirok etgan taqdirdagina samarali bo'lishi mumkin.

Huquqbuzarliklar viktimligini profilaktika qilishda bir-birini qo'llab-quvvatlash shaxslarning birlashuvidan tashqari, amaliy viktimologiyadan ta'lim kurslarini tashkil qilishida o'z samarasini berishi mumkin. Chet el tajribasida bu mavzudagi ma'ruzalar bugungi kunda deyarli barcha o'quv yurtlarida o'qitilishidan dalolat beradi. Hatto, maktabgacha tarbiya muassasalarida ham bolalar sodda, o'zlari tushunishga qodir bo'lgan darajada turli-tuman xavf-xatarlardan qutulib qolish haqida foydali axborotlar oladilar.

Nazariy kursdan tashqari, maktab o'quvchilari va talabalarda maxsus treninglar o'tkazish: o'zini o'zi himoya qilish usullarini o'zlashtirish, turli himoya vositalarini qo'llash usulini maromiga yetkazish imkoniyati mavjud.

Ko'pgina mamlakatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, hamma uchun muhim bo'lgan umumiy maqsadlar va vazifalarni aniq belgilash va hatto, turli rag'batlantirish choralardan foydalanish bunday jamoatchilik harakatiga butunlay o'zgacha tus beradi.

Shuni tan olish kerakki, huquqbuzarliklar viktimligining maxsus profilaktikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi dasturlari O'zbekistonda bu darajada keng rivojlangani yo'q. Ammo bunday aloqalarni yo'lga qo'yish va huquqbuzarliklar viktimligiga qarshi kurashishda butun jamiyatning kuch-g'ayratini birlashtirishga urinishlarni hozirgi vaqtda ham kuzatish mumkin. Bunga fuqarolar huquqbuzarliklarni to'xtatish yoki fosh qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga anonim tarzda xabar qilishlari uchun o'rnatilgan «ishonch telefonlari»; tomoshabinlar xavfsizlikni ta'minlash usullari bilan tanishtirishga bag'ishlangan «Sud hokimiyati» yoki «Bir jinoyat izidan» kabi maxsus televizion ko'rsatuvlarning tayyorlanishi va namoyish etilishi; viktimogen vaziyatlarni chetlab o'tish yo'llari va profilaktikaga

doir matbuotda e'lon qilinayotgan maqolalar; jinoyatdan himoyalanişga bo'lgan huquqning mazmuni va uni ro'yobga chiqarish yo'llarini tushuntiruvchi ilmiy-ommabop risolalarning nashr etilishi kabilar misol bo'lishi mumkin.

Fikrimizcha, bunday tadbirlarning bosh maqsadi aholida huquqbuzarliklar viktimgiga qarshi kurashish tajribasi, o'z kuchiga va davlat madadiga ishonch paydo bo'lishiga, binobarin, jinoyatchilik oldida qo'rquv sezilarli darajada pasayishiga erishishdan iboratdir.

Jamoat joylarida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan huquqbuzarliklar viktimgilashuvning maxsus profilaktikasini olib borish uchun odamlar kam bo'lgan joylarning yaxshi yoritilishini ta'minlash; yerto'lalar, chordoqlar va boshqa shunga o'xshash joylarni qulflash va vaqti-vaqti bilan tekshirish; deviant xulq-atvorga moyil bo'lgan shaxslar yig'iladigan joylarni aniqlab, bunday joylarni profilaktika inspektorlarining bo'linmalari tomonidan doimiy nazorat qilish lozim.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinoiy yo'lni tanlashiga ta'sir qilayotgan asosiy kriminogen omillar sifatida zo'ravonlikni, jinoiy yo'l bilan boylik orttirishni, ma'naviy buzuqlikni targ'ib qiluvchi filmlarni tomosha qilish, jinoyat olami vakillarining hayot tarziga taqlid qilish kabilar<sup>70</sup> ham kelajakda voyaga yetmaganlarning jabrlanish holatlarini keltirib chiqaradi.

10-29 yoshdagi bolalar va o'smirlar orasida ko'pincha tanishlar va notanishlar o'rtasida ular tomonidan quolsiz kaltaklanish va jismoniy hujumlar natijasida zo'ravonlikdan jabrlanish ko'zatilgan. Bundan tashqari, ularga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tarkibiga nomutanosib ravishda yoki o'rinsiz jinsiy aloqa va jinsiy aloqada bo'lmagan harakatlar kirib, rozi bo'lishga yoki rad etishga qodir bo'lmagan kishiga nisbatan qilingan odam savdosi xatti-harakatlari ham kirgan.

Hissiy yoki ruhiy zo'ravonlik bolalarning harakatlarini cheklash, jirkanish, masxara qilish, qo'rqitish va kamsitish, rad etish va dushmanlik qilishning boshqa jismoniy bo'lmagan shakllari ham ushbu turlarga kiradi

Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchining kriminologik tavsifini belgilovchi omillarning eng ko'p tarqalganlari sifatida: voyaga yetmagan shaxsning tajovuzlar bilan birgalikda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi; voyaga yetmaganning axloq normalariga zid xulqi; behayo kiyimlar (mini yubkalar

va boshqalar); suhbatlarni jinsiy mavzularga aylantirishni ko'rsatish mumkin, deb ta'kidlaydi Q.Payzullaev.

Huquqbuzarliklarning asosiy ko'pchiligi 57%i yopiq xonada (jumladan, xonadon yoki boshqa yashash xonasida), 12%i uy yo'laklarida, yerto'lalar, liftlar, uy zina maydonlari, avtomashinalarda); 20%i ko'chada, xiyobon yoki istirohat bog'ida; 6%i jamoat joylarida sodir etilgan. 5% hollarda esa jinoyat sodir etilgan joylarni aniqlab bo'lmagan.

Mazkur turdagi jinoyatning jabrlanuvchisi hisoblangan voyaga yetmaganlarning kriminologik xususiyatlaridan biri shunday izohlanadiki, ular nafaqat o‘z otalariga yoki boshqa yoshi katta yaqinlarga xabar bermasdan, balki iloji boricha o‘zlarining munosabatlarini sir tutishga harakat qiladilar.

Voyaga yetmagan shaxslarning nomusiga tegish uchun javobgarlik normalarini belgilovchi moddalar dispozitsiyasini aniqlashda qonun chiqaruvchi tomonidan himoyaga olingan shaxslarning yoshi 18 va 14 yosh qilib belgilandi. Bu bilan voyaga yetmagan va kichik yoshdagilarning nomusiga tegish atamaları bilan bog‘liq muammolar bartaraf qilinadi. Ammo voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi bilan bog‘liq jinoyat jabrlanuvchilarini o‘rganishda yetkazilgan jismoniy va ma‘naviy zararni qoplashda bir qancha muammolar vujudga kelmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Qonun va adolat ustuvorligini taminlash – barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti. – T.: NMIU, 2017 – 32
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017. – 592 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 10 apreldagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 20-son, 221-modda; 2015y., 32-son, 425-modda; 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017. – № 6. – 70-m.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy- maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishchora- tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3827-son qarorilex.uz)// [www.lex.uz/](http://www.lex.uz/).
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmonilex.uz)// [www.lex.uz/](http://www.lex.uz/).